

INNOVATSION TEXNOLOGIYARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALARNING KREATIVLIK SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Gadayeva Munira Muxamedovna

Osiyo Xalqaro Universiteti "Pedagogika va psixologiya"

kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflashi, iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etishi, talabalar kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantirilishi, asta-sekin takomillashishi va rivojlanib borishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Annotatsiya. В данной статье креативность характеризует человека в целом или отдельные его черты, а также важный фактор таланта, способность учащихся развивать свои творческие способности в течение определенного периода времени путем последовательного обучения, самообучения, поэтапного представления идей. о том, как совершенствоваться и развиваться.

Kalit so'zlar: kreativlik, tafakkur, qobiliyatini rivojlantirish, muammoli masala, muammoli vaziyat.

Ключевые слова: творчество, мышление, развитие способностей, проблемная проблема, проблемная ситуация.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Xammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq"[1, 168].

Hozirgi kunga kelib pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va dars jarayoniga tadbiiq etish, birinchidan, an'anaviy o'qitish, yaratish va amaliyotga tadbiiq etish, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlariga tayanib ish ko'rish tufayli "axborotli o'qitish" shaklida tavsiflanadi. Natijada o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, nufuzli bilim beruvchi manbaga aylanib

borishi ta'kidlangan holda baholanmokda. "Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantiruvchi soha xalq ta'limi tizimi deb atalib, uni amalga oshiruvchi shaxs o'qituvchi yoki muallim deyiladi. O'qituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan"[2, 59].

"Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayergarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi"[3, 17].

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to'g'risida fikr yuritib, istiqloq sharoitida talabalarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil va kreativ fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligini dolzarb vazifa qilib qo'yilgan. Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog'liq. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllanmagan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi sayoz bo'ladi.

Talabalarini vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish lozimdir. Aslini olganda, axloq ma'naviyatning o'zagi hisoblanadi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq boshlang'ich sinf talabalarining yurish-turishida, o'zini tutishida, insonlar bilan muomala madaniyatida namoyon bo'ladi. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, rahmdillik, samimiylik, sahiylik, shirinso'zlik ekanligini alohida uqtirib o'tish lozimdir.

Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun

jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo`lishi, innovatsion yangiliklarni o`z faoliyatida o`rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o`qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo`lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o`quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko`rinishi deyish mumkin. O`qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob`ekti bo`lgan o`qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Talabalarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o`rin tutadi. Talaba o`zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o`quv tajribasiga tayanib og`zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda ohar bir fanning o`zi uchun noma`lum qirralari xususida o`qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo`ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O`qituvchi bunday hamkorlik jarayonida talabalarining kreativligini o`stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya`ni talabalarining qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g`oyat muhimdir. Boshlang'ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo`lib, ta`limning bu bosqichida pedagog o`qituvchilarga katta mas`uliyat yuklatiladi. Ya`ni boshlang'ich sinf talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o`rganishni talab etmoqda. Talabalar o`z-o`zidan kreativ bo`lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma`lum vaqt ichida izchil o`qib-o`rganish, o`z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O`qituvchilar talabalar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni talabaga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali talabalarni o`zgacha yondashuvli ya`ni kreativ bo`lishlariga erishishi mumkin. O`qituvchi talabalarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, talabaning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu talabalarni o`z ustida ishlash, mustaqil o`qib o`rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda: kreativ salohiyat deganda talabalar boshqalarga taqlid qilmasdan, o`zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, xis-tuyg`ularida, xatti-xarakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etadi. Chunki har bir inson ham o`z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol

bo`lishga intiladi. Qolaversa, kreativlik zehni o`tkirlikni belgilab beradi, talabalarning diqqat-e`tiborini ta`lim jarayoniga faol jalb etishni ta`minlaydi. Shundan kelib chiqib zamonaviy ta`lim sifatini oshirish, ta`lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalarning o`quv faoliyatini samarali tashkil etish muammosi, zamonaviy o`qitish usullaridan keng foydalangan holda talabalarda kreativ salohiyatni rivojlantirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Sharipov SH. Talabalar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta`minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012
2. Muslimov N.A. Kasb ta`limi o`qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007.
3. Adizov B. Boshlang`ich ta`limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 2003.
4. Aliyev A. Talabalarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O`qituvchi,1991.
5. Ziyonet.uz Uzedu.uz Rtm.uz Pedagog.uz